

**YANGI O‘ZBEKISTONDA ATROF - MUHITNI
KO‘KALAMZORLASHTIRISH VA OBODONLASHTIRISHDA OLIB
BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR.**

Azimov Sherzodjon Bekzodjon o‘g‘li

Annotatsiya: *Daraxtlar, ular havodagi zararli karbanat angidridni yutib, o‘rniga kislarod ishlab chiqaradi va bizning nafas olishimizga yordam beradi. Ular issiqda salqin beradi, atrof muhitni shovqindan himoya qiladi va atrof muhitga o‘zgacha zavq ulashadi. Kelingi yillarda atrof muhit ekologik salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida samarali ishlar olib borilmoqda, shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Yashil makon» umummilliy loihadini e‘lon qildi. Loiha doirasida yiliga 200mln tup daraxt va buta ko‘chatlari ekish rejalashtirilgan bo‘lib, bu borada allaqachon amaliy bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi.*

Kalit so‘zlar: *«Yangi O‘zbekiston», «Yashil makon», Shahar, ko‘chalar, landshaft arxitekturasini, ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, daraxt va butalar, manzarali o‘simliklar, ekologiya, atrof-muhit.*

So‘nggi yillarda aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar ko‘rilmoqda. Qimmatbaho navli daraxt va butalar kesilishiga moratoriy joriy qilinishi, daraxt kesganlik holatlari uchun jarima va kompensatsiyalar miqdorining oshirilishi shular jumlasidandir. Biroq, mas‘ul tashkilotlarning amalga oshirilayotgan ishlarga sustkashlik bilan yondashishi hamda ayrim shaxslarning o‘simlik dunyosi ob‘ektlariga bo‘lgan tajovuzkor harakatlari, shu jumladan, daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog‘liq holatlar umumekologik vaziyatning yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, investitsion faollik sur‘atlarining, jumladan, sanoat ishlab chiqarish, qurilish, urbanizatsiya va bunyodkorlik ko‘lamining keskin kengayishi aholi punktlariga tushayotgan ekologik yuklamani kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Daraxt, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas‘ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda

O‘zbekiston Respublikasining Atrofmuhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son farmonida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida:

1. Butun mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko‘paytirishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi “Yashil makon” umummilliy loyihasi tatbiq etilsin:

daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish;

ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning natijasida hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish;

ko‘chatxonalar sonini ko‘paytirish, tuproq unumdorligini hisobga olgan holda, hududlar iqlimiga mos xorijiy manzarali daraxtlarni mahalliyashtirish;

hududlarda “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni barpo etish;

daraxtlarni sug‘orish tizimini qayta ko‘rib chiqish, uning samarali faoliyatini ta’minlash;

har bir daraxtni parvarish qilish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarni belgilash, bu borada rag‘batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish;

daraxtlarni shikastlantirish va nobud qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini yanada oshirish.

2. Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilsin.

Belgilansinki, moratoriy davrida amaldagi cheklov va majburiyatlar bilan birga qo‘shimcha ravishda:

a) huquqbuzarlarga:

moratoriy talablarini buzganlik uchun ma’muriy jarimalar miqdori besh baravarga;

daraxtlar va butalarni noqonuniy kesish va shikastlantirish bilan o‘simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish summalari ikki baravarga oshirilgan holda qo‘llaniladi;

b) moratoriy talablarini buzgan qurilish-pudrat tashkilotlarining “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidagi darajasi (reyting bahosi) bir pog‘ona pasaytiriladi. Bunda:

darajasi (reyting bahosi) bir pog‘ona pasaytirilgan qurilish-pudrat tashkilotlari bir yil mobaynida darajasini (reyting bahosini) ko‘tarish imkonidan mahrum bo‘ladi;

darajasini (reyting bahosini) bir pog‘onaga pasaytirish imkoni bo‘lmagan qurilish-pudrat tashkilotlari bir yil muddatga qurilish-pudrat tashkilotlari elektron reytingidan to‘liq chiqarib tashlanadi;

v) yangi quriladigan, balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlarni loyihalashtirishda ularga tutash hududlarning ko‘kalamzorlashtirish (daraxtlar, butalar, boshqa o‘simliklar va nihollarni ekish) maydonlari loyiha uchun ajratiladigan yer uchastkalari umumiy maydonining 25 foizidan kam bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi (ekspluatatsiya muddatini o‘tab bo‘lgan va ma‘nan eskirgan bino va inshootlarni renovatsiya qilish bundan mustasno);

g) davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarini kesish, kundakov qilish, shikastlantirish yoki yo‘q qilishni nazarda tutuvchi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan hukumat farmoyishlari, bayonnomalar, yozma topshiriqlar, idoraviy hujjatlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ko‘rsatmalari va qarorlarini qabul qilish qat’iyan taqiqlanadi.

3. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Davlat ekologiya qo‘mitasi) uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarini kesish, kundakov qilish, shikastlantirish yoki yo‘q qilishni nazarda tutuvchi loyiha hujjatlarini tayyorlaganlik uchun loyiha institutlarining javobgarligini belgilash;

daraxtlar va butalarni qonunga xilof ravishda kesganlik, kundakov qilganlik, shikast yetkazganlik, boshqa joyga ko‘chirib o‘tkazganlik hamda parvarish qilmaslik oqibatida ularning qurib qolishi uchun javobgarlikni kuchaytirish.

4. Davlat ekologiya qo‘mitasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda 2022 yil 1 sentyabrga qadar quyidagilar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan “Yashil makon” platformasini ishga tushirsin:

hududlarning tuproq-iqlim xususiyatlari, ularda mavjud daraxtlar soni, turi va joylashuvi, shaharlarning ko‘kalamzorlashtirilganlik darajasi;

aniq hudud (tuman (shahar), mahalla va yer uchastkasi) kesimida aholining shaxsiy tashabbusi asosida daraxtlar ekilishi mumkin bo‘lgan manzillar va daraxtlarning turlari;

aniq hudud va har bir daraxt kesimida daraxtlarni kesish, shu jumladan, sanitariya

maqsadida kesish uchun berilgan ruxsatnomalar;

aniq hudud va har bir daraxt kesimida daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesish, kundakov qilish, shikastlantirish, yo‘q qilish va ko‘chirish bo‘yicha aniqlangan huquqbuzarliklar va ular bo‘yicha ko‘rilgan choralar.

5. Quyidagilar:

2022-2024 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda “yashil bog‘lar”ni barpo etish dasturi lilovaga muvofiq;

2022-2024 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda yangi hamda madaniyat va istirohat bog‘lari negizida tashkil etilayotgan “yashil jamoat parklari” ro‘yxatlari 2a va 2b-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6. Belgilab qo‘yilsinki:

a) “yashil bog‘lar” shaharlar va boshqa aholi punktlarida daraxtzor va butazorlarni barpo etish, takroriy ko‘paytirish, qayta tiklash, parvarish qilish, muhofaza qilish hamda ularning mahsuldorligini oshirishga xizmat qiladi;

b) “yashil jamoat parklari” idoraviy mansubligidan qat’i nazar, bino, inshootlar, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob’ektlari, shu jumladan, attraksionlar qurilishi taqiqlangan hamda aholi sayil qilishiga mo‘ljallangan daraxtzor va butazorlardan iborat bo‘ladi;

moljallangan daraxtzor va butazorlardan iborat boladi;

v) quyidagi tadbirlarni moliyalashtirish Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi:

“Yashil makon” platformasini yaratish va faoliyatini ta’minlash;

daraxtlarni biriktirish, xususan tegishli ko‘chirmalar berish;

g) “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil etish, saqlash va rivojlantirish tadbirlarini moliyalashtirish mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari, homiylik va grant mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

d) “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari” joylashgan yer uchastkalari:

ularning mulkdorlari, egalari, foydalanuvchilari va ijarachilari tasarrufida bo‘ladi;

ularning mulkdorlari, egalari, foydalanuvchilari va ijarachilari belgilanmagan bo‘lsa, “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari” ulardan foydalanuvchi yoki ularga xizmat ko‘rsatuvchi tegishli davlat organlari, muassasalari va korxonalari,

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki ko‘p kvartirali uy-joylar mulkdorlariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib beriladi;

ye) tumanlar (shaharlar) markaziy ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirishda:

ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlarining ko‘karuvchanligini ta‘minlash uchun sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagan yerlarga hamda yoshi 5 yildan kam bo‘lgan ko‘chatlarning ekilishi taqiqlanadi;

bir turdagi daraxt va buta ko‘chatlarini ekish orqali “kashtan ko‘chasi”, “chinor ko‘chasi” kabi namunaviy ko‘chalarning tashkil etilishiga ustuvor e‘tibor qaratiladi;

j) 2022 yil 1 martdan boshlab daraxt va butalarning zararkunandalari hamda kasalliklariga qarshi kurashish tadbirlariga mahalliy byudjetlar qo‘shimcha manbalarining 2 foizigacha miqdordagi mablag‘lar ajratiladi.

7. Mahalliy davlat hokimiyati organlari Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda:

har yili kuz va bahor mavsumlarida ko‘chat ekish va saqlash ishlarini tashkil etish bo‘yicha “yashil haftalik” tadbirlari o‘tkazib borilishini ta‘minlasin;

televideniye va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalangan holda, yoshlar va boshqa ko‘ngillilarni daraxt ekish, parvarishlash ishlariga faol jalb qilish tadbirlarini tashkil qilsin.

8. Belgilansinki:

“yashil haftalik” tadbirlarida bajariladigan barcha ishlar va o‘tkaziladigan tadbirlar ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan aholiga bepul ko‘chat tarqatish uchun mahalla fuqarolar yig‘inlariga ko‘chatlar yetkazib beradi hamda “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ga daraxt ekish maqsadida kelgan fuqarolarni ko‘chat ekish uchun zarur jihozlar bilan ta‘minlaydi;

ko‘kalamzorlashtirish ishlarida alohida tashabbus ko‘rsatgan shaxslarni Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan “Tabiat himoyachisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash amaliyoti joriy etiladi.

9. Barcha tumanlarda (shaharlarda) tuman (shahar) hokimi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i, irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i, qurilish bo‘limi boshlig‘i va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘idan iborat namunaviy tarkibda irrigatsiya va sug‘orish tizimining samaradorligini oshirish

bo'yicha ishchi guruhlar tuzilsin.

Ishchi guruhlar ikki oy muddatda tumanlar (shaharlar) markazlarida obodonlashtirish ob'ektlarining sug'orish tizimlarini, shu jumladan, ariqlar, nasoslar, quduqlar, sug'orish quvurlari va yer osti suv chiqarish quduqlarini xatlovdan o'tkazib ularni joriy ta'mirlash qayta tiklash va tozalash choralarini ko'rsin

xatlovdan otkazib, ularni joriy tamirlash, qayta tiklash va tozalash choralarini korsin.

10. Quyidagilar:

2022-2026 yillarda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko'kalamzorlashtirish hududlariga sug'orish tizimlarini va suv chiqarish quduqlarini tashkil etish bo'yicha dastur 3-ilovaga muvofiq;

2022-2026 yillarda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlash parametrlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, mazkur maxsus texnika va mexanizmlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 iyundagi PQ-4351-son qarori bilan tasdiqlangan 2020-2024 yillar davrida tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlashning yig'ma parametrlariga qo'shimcha ravishda ajratiladi.

Bosh vazirning birinchi o'rinbosari A.J.Ramatovga, zarur hollarda, mazkur band bilan tasdiqlangan ilovalarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining asoslangan takliflariga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi berilsin.

Mazkur bandeda belgilangan tadbirlar 2022 yilda respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti va viloyatlar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan ssuda mablag'lari hisobidan, 2023 yildan boshlab mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

11. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining quyidagi takliflari qo'llab-quvvatlansin:

aholi punktlarida qarovsiz qolgan daraxtlarni saqlash va parvarish qilish hamda "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni ko'kalamzorlashtirish, shu jumladan, ularning hududida daraxtlarni ekish, saqlash va parvarish qilish ishlariga ishsiz shaxslarni, birinchi navbatda, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar

daftari”ga kiritilgan fuqarolarni faol jalb qilish;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan tuman (shahar) hokimliklari buyurtmalariga muvofiq har yili kuz va bahor mavsumlarida ko‘chat ekish tadbirlarini moliyalashtirish.

12. 2022 yil 1 martdan boshlab shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

o‘simliklar dunyosi ob‘ektlari davlat kadastri tarkibida respublikaning barcha hududlaridagi va har qanday turdagi daraxtlarning hisobini yuritish hamda ularni biriktirish uchun “Daraxtlar reyestri” tizimi joriy etiladi;

yuridik shaxslar – aholi punktidagi binolar va inshootlarning mulkdorlari yoki ulardan foydalanuvchilar, shu jumladan, ijaraga oluvchilar o‘ziga biriktirilgan daraxtlarni saqlash va parvarish qilish uchun mas’ul hisoblanadi;

har bir yuridik shaxs – aholi punktidagi binolar va inshootlarning mulkdori yoki ulardan foydalanuvchiga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organi tomonidan tutash hududlardan kelib chiqqan holda unga biriktiriladigan barcha daraxtlar bo‘yicha “Daraxtlar reyestri”dan yagona ko‘chirma beriladi;

tutash hududlardagi biriktirilgan daraxtlar bo‘yicha “Daraxtlar reyestri”dan ko‘chirma mazkur daraxtlar va ular joylashgan yer uchastkalariga nisbatan hech qanday huquqni keltirib chiqarmaydi.

13. O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi 2023 yil 1 sentyabrga qadar davlat o‘rmon fondiga kiradigan daraxtlar to‘liq raqamlashtirish yo‘li bilan xatlovdan o‘tkazilishini ta‘minlasin hamda xatlov natijalarini “Daraxtlar reyestri” tizimiga kiritish uchun Davlat ekologiya qo‘mitasiga taqdim etsin. Bunda, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasiga uchuvchisiz uchish apparatlaridan (dronlardan) foydalanish va ularni to‘lovsiz uchirish huquqi beriladi.

14. O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi huzurida xo‘jalik hisobidagi “Yashil hudud” davlat unitar korxonasi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy korxonalari tashkil etilsin.

Quyidagilar “Yashil hudud” davlat unitar korxonasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

manzarali daraxt va butalar ko‘chatlarini yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ko‘chatxonalarni tashkil etish;

respublikada “yashil bog‘lar”ni ko‘paytirish;

suv tejaydigan texnologiyalarni qo‘llagan holda sug‘orish ishlarini amalga oshirish;

daraxtzorlarni parvarish qilish va zararkunandalarga qarshi kurashish ishlarini olib borish;

jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida xizmat ko‘rsatish.

15. Ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish hamda “Yashil hudud” davlat unitar korxonasi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi markaziy apparatida boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha rais o‘rinbosari – “Yashil hudud” davlat unitar korxonasi direktori lavozimi va 5 nafar shtat birligidan iborat Yashil hududlarni rivojlantirish boshqarmasi tashkil etilsin.

16. Mazkur farmonga 1-ilovaga asosan “yashil bog‘lar”ni tashkil etish ishlari bo‘yicha:

loyihachi etib – “O‘rmonloyiha” loyihalash instituti;

pudratchi etib – “Yashil hudud” davlat unitar korxonasi va uning hududiy korxonalari belgilansin.

17. O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi:

bir oy muddatda “Yashil hudud” davlat unitar korxonasi va uning hududiy korxonalari ustavlari belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta‘minlasin;

doimiy asosda “Yashil hudud” davlatunitar korxonasining buyurtmalariga muvofiq shartnoma asosida o‘z

doimiy asosda Yashil hudud davlat unitar korxonasining buyurtmalariga muvofiq shartnoma asosida oz tizimidagi o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan manzarali daraxt va butalarning yuqori sifatli ko‘chatlari yetkazib berilishini ta‘minlasin;

ikki oy muddatda O‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasining qo‘shimcha daromadlarini jalb qilish hamda qo‘shimcha manbalardan kelib tushadigan mablag‘larni hududlarda “Yashil bog‘lar” barpo etishga yo‘naltirish bo‘yicha asosli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

18. Mazkur farmonga 22-bandda nazarda tutilgan sub’ektlar uchun Soliq kodeksining 414 va 428moddalariga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

=19. Toshkent shahar hokimligi, Davlat ekologiya qo‘mitasi, O‘rmon xo‘jaligi

davlat qo‘mitasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi keng jamoatchilik, ilmiy-tadqiqot institutlari va xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda:

a) 2022 yil 1 mayga qadar quyidagilarni nazarda tutuvchi “Toshkent shahri – yashil maydon” g‘oyasini o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

2026 yilga qadar Toshkent shahrida ko‘kalamzorlashtirish maydonlarini xalqaro standartlarga muvofiq kengaytirish hamda uni dunyoning yetakchi yashil shaharlaridan biriga aylantirish;

bioxilma-xillikni asrash, tiklash va ko‘paytirishning aniq tizimini yaratish;

ko‘kalamzorlashtirish yuzasidan qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha institutsional bazani, shu jumladan, alohida tuzilmalarni (loyiha ofislarini) shakllantirish;

aholining ko‘kalamzorlashtirish ishlaridagi faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;

2022-2026 yillarda Toshkent shahrini ko‘kalamzorlashtirish dasturini tasdiqlash;

b) 2022 yil 1 sentyabrga qadar Toshkent shahrini ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha bosh rejani ishlab chiqsin va uning belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta‘minlasin.

20. Yashil hududlarni rivojlantirish, ko‘kalamzorlashtirish va ko‘chat ekish ishlarini tizimli tashkil etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

21. Oliy Majlis palatalariga Davlat ekologiya qo‘mitasining axboroti asosida “Yashil makon” umummilliy loyihasi ijrosi yuzasidan hudud rahbarlari faoliyatiga baho berib borish tavsiya etilsin.

22. Davlat ekologiya qo‘mitasi ikki oy muddatda:

davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, albatta atrif-muhitni sofliigi va ekologiya sanitar gigenik holatlarni ta‘minlash kabi muammolarni chetlab o‘tmayapti desak mubolag’a bo‘lmaydi. Biz aminmizki, tabiatida bunyodkorlik va bog‘bonlik meros

bo'lgan o'zbek xalqining an'analari obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ilmining yangi yo'nalishlarini uyg'unlashtirgan holda, shahar va qishloqlardagi yam-yashil ko'rkamlarning barqaror rivojlanishiga, ona yurtimiz go'zalligining yanada yaxshiroq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) Уринова, Н. М., & Хусеинова, С. Б. (2021). Теоретико-практическая подготовка будущих учителей гуманитарного профиля к социально ориентированной воспитательной работе. Бюллетень науки и практики, 7(5), 434-440.

2) Botirovna, X. S. (2023). "TARBIYA" FANI ORQALI TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI-O'QUVCHILAR HAMKORLIK FAOLIYATI. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 567-569.

3) Khamidovna, P. O. (2021). Students develop communication culture pedagogical-psychological factors. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

4) Khamidovna, P. O. (2023). Communication Culture of Individuals. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 4(4), 25-28.

5) Khamidovna, P. O. (2021). Methods of teaching young people to communication in pedagogical activity. Journal of Academic Research ISSN, 2181(2020), 26.

6) Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Bakhtiyarovna, Y. B. (2021). THE ROLE OF COMMUNICATION AND INDEPENDENT THINKING IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

7) Gulomov, K. K. (2023). PEDIATRIC STROKE DIAGNOSIS: CURRENT CHALLENGES AND FUTURE PERSPECTIVES. Экономика и социум, (12 (115)-1), 256-260.

8) Ogli, N. A. K., & Qahhorali, G. (2024). IMPROVEMENT OF SURGICAL TACTICS AND TREATMENT OF COMBINED INJURIES IN CHILDREN. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(5-2), 17-21.

9) Abdumuminov, B. R., Eminov, R. I., & Gulomov, K. K. (2023). UNDERSTANDING FETAL CIRCULATION AND THE TRANSITION TO POSTNATAL CIRCULATION: SHUNTS, PLACENTA, AND CONGENITAL HEART DEFECTS. Экономика и социум, (6-1 (109)), 14-21.

10) Gulomov, K. K., Juraev, S. B., Khamdamov, R. A., Kholikov, B. M., & Meliboev, R. A. (2025, February). IMPROVING THE TREATMENT OF COMPLICATIONS IN ENDOUROLOGICAL OPERATIONS FOR UROLITHIASIS. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 31-33).

11) Ugli, G. K. K. (2025, February). SUBACUTE SCLEROSING PANENCEPHALITIS IN KIDS: EEG & MRI TRENDS PRE-AND POST-2023. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 28-30).

12) Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2025). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE, AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(4), 419-430.

13) Ugli, G. K. K. (2025). CHARACTERISTIC EEG PATTERNS IN SSPE AND THEIR CORRELATION WITH CLINICAL STAGES. ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES, 2(2), 26-30.

14) Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2024). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(12), 16-27.

15) Isroiljonov, S., & Tadjibaeva, D. R. (2021). Study of the energy potential of the heart of college students through the energy potential of the heart. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1083-1088.

16) Таджибаева, Д. Р. (2023). СРАВНЕНИЕ УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ОРГАНИЗМА МЕСТНЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН УЗБЕКИСТАНА И ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН КЫРГЫЗСТАНА. Universum: химия и биология, (12-1 (114)), 62-66.

17) Таджибаева, Д. (2024). Методы исследования генетики человека. Общество и инновации, 5(8/S), 118-122.

18) Tadjibayeva, D. (2024). INSON TANASINING JISMONIY HOLAT DARAJASI. TAMADDUN NURI JURNALI, 8(59), 305-307.